

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 15 748,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 110,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 2,8 % ga yetdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



105,7 %

15 748,8 mlrd. so'm

2,8 %

110,8 %



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi

2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mird. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	2023-yil	2024-yil	
I. YAHM, jami	13 444,7	15 748,8	105,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 469,7	15 073,6	105,8
mahsulotlarga sof soliqlar	975,0	675,2	105,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	12 469,7	15 073,6	105,8
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<i>2 525,6</i>	<i>2 798,5</i>	<i>103,9</i>
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	4 002,3	4 995,4	107,8
sanoat	2 910,6	3 746,3	107,4
qurilish	1 091,7	1 249,1	108,6
xizmatlar	5 941,8	7 279,7	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	806,9	960,0	110,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	927,8	1 184,0	104,3
boshqa xizmat tarmoqlari	4 207,1	5 135,7	104,5



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinish turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 839,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 % ga yuqoridir.

2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023-yil	2024-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,7	95,7
mahsulotlarga sof soliqlar	7,3	4,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,3	18,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,1	33,2
sanoat	23,3	24,9
qurilish	8,8	8,3
xizmatlar	47,6	48,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	6,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,4	7,9
boshqa xizmat tarmoqlari	33,7	33,9



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

5

2024-yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 18,6 % ni, sanoat tarmog'i 24,9 % ni, qurilish 8,3 % ni va xizmatlar sohasi 48,2 % ni tashkil qildi.

2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2023-yil



20,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilk xo'jaligi

7,3 %

23,3 %

Sanoat

8,8 %

Qurilish

47,6 %

Xizmatlar

2024-yil

Qishloq, o'rmon va baliqchilk xo'jaligi

18,6 %

4,3 %

Sanoat

24,9 %

Qurilish

8,3 %

Xizmatlar

48,2 %



Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 0,4 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,6 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – salbiy 2,4 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – salbiy 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2023-yilning yanvar-iyunida – salbiy 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)

YAHM



5,7 %

Sanoat



1,6 %

Xizmatlar



2,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



0,7 %

Qurilish



0,7 %

Mahsulotlarga sof soliqlar




0,4 %

2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 18,6 %), sanoatda – 107,4 % (24,9 %), qurilishda – 108,6 % (8,3 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (48,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,4 % (6,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 104,3 % (7,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,5 % dan (33,9 %) iborat bo'ldi.

**2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**


2023-y.

2024-y.



2024-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023-yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 110,8 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 119,8 % va xizmatlar sohasida – 116,4 % qayd etildi.

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 7 938,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida – 6 596,5 mlrd. so'm). YAHMDagi ulushi 52,7 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 52,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMDagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2023-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMDagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da



2023-yil

6 596,5

52,9 %

2024-yil

7 938,5

52,7 %

